

## QO'QON XONLIGIDA SAVDO MUNOSABATLARI



### Abstract:

Ushbu maqolada Qo'qon xonligining XVIII asr boshlaridan XIX asr 70-yillariga qadar bo'lgan savdo aloqalari yoritilgan. Xonlikning iqtisodiy markazlari hisoblangan katta va kichik shaharlar, ularning ichki va tashqi savdodagi o'rni hamda ahamiyati tahlil etilgan. Tashqi savdoning o'rni, import va eksport mahsulot turlari, tarkibi, bu mahsulotlarga bo'lgan talab va taklif mahsulotlarning raqobatbardoshligi, bozorlar, karvonsaroylar, savdo do'konlari, bojxonalar faoliyati, boj turlari, tarkibi, undan keladigan tushumning hajmi, ularning davlat iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan.

### Key words:

Savdo, "qora pul", narx-navo, fulus, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, hunarmandchilik, ipak matolar, qog'oz.

Author of the article:

Workspace (Education subject)

Muhammadiyahva Zulayho  
Ilhom qizi

ShDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix  
yo'nalishi talabasi

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 24-may kuni "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2995-sonli qarorni imzoladi. Qarorga keltirilgan sharhda tushuntirilishicha, hujjat yosh avlodni vatanparvarlik va tarixga chuqur hurmat ruhida tarbiyalash hamda O'zbekistonning jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan mamlakat sifatidagi xalqaro obro'-e'tiborini yanada mustahkamlash, boy yozma merosni saqlash, o'rganish va keng targ'ib qilish ishlarini yangi sifat bosqichiga ko'tarishga yo'naltirilgan. Ma'lumki, Qo'qon xonligi vujudga kelishi bilan uning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida ko'plab o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Qo'qon savdosi shahar hayotida katta va muhim o'rin egallagan. Ko'p sonli manbalar, sayyohlarning yozganlari, elchilik hujjatlari, elchilarning hisobotlari, statistik hisobotlar va ilmiy adabiyotlar xonlikning savdo munosabatlari haqida ma'lumot beradi.

Manbaga oid adabiyotlar tahlili. Qo'qon xonligi tarixi yoritilgan adabiyotlarni shartli ravishda guruhlariga ajratish maqsadga muvofiqdir. 1. Rossiya imperiyasi hukmronligi davriga oid tadqiqotlar. 2. Sovet davri adabiyotlari. 3. Mustaqillik davrida nashr etilgan ilmiy tadqiqotlar. 4. Qo'qon xonligi tarixining ayrim masalalarini o'zida aks ettirgan horijlik mualliflarning asarlari. Qo'qon xonligi tarixining turli masalalariga oid tadqiqotlar olib borgan olimlar jumlasiga V.V.Bartold, A.G.Adinarov, A.Xasanov, A.P.Qayumov, E.Xojiyev, A.L.Troitskaya, R.N.Nabiyev, H.Z.Ziyoyev, H.N.Bobobekov, F.G'afforov, V.A.Akramov, S.X.Ishanxanov, V.M.Ploskix, T.K.Beysembiyev, E.Xurshut, A.Mahkamov, Sh.H.Vohidov kabilarning asarlarini kiritish mumkin. Qo'qon xonligi tarixiga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu davrda yaratilgan asarlar turli ijtimoiy guruhlariga mansub mualliflar tomonidan yozilganligi, ularda xonlik siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tavsifiga asosiy e'tibor qaratilganligi, mamlakatdagi savdo munosabatlarini tahlil etishga bag'ishlangan maxsus tadqiqot yaratilmaganligi, bu asarlar asosan informativ xarakterga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozish davomida ilmiy, adabiyotlar tahlili, qiyoslash, analiz, umumlashtirish, tarixiylik metodlaridan foydalanildi. Tahlil va natijalar. XVIII asr boshlarida tashkil topgan Qo'qon xonligi O'rta Osiyodagi qudratli davlatlarning biriga aylana bordi. Buning natijasida mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy hayot izga tushdi, ichki va tashqi savdo rivojlandi. Yangi bozorlar, savdo rastalari, do'konlar qurildi mavjudlari ta'mirlandi. O'z navbatida savdo-sotiq jarayoni ham tartibga solindi. XVIII asrning 2-yarmidan boshlab siyosiy mavqeini tiklab olgan Qo'qon xonligi o'z puliga ega bo'ldi va tovar-pul munosabatlari nazorat ostiga olindi. Savdo xonlik iqtisodiyotining ajralmas qismi hisoblanib, mamlakat uchun ham muhim daromad manbai bo'lgan. XIX asrning 70-yillarida xonlikda bo'lgan A.P.Xoroshxin Qo'qon xonligi aholisining savdo-sotiqqa bo'lgan munosabati haqida "...20-30 rubl puli bo'lgan sart darrov tijorat ishlariga kirishadi", - deb yozgan edi. Qo'qon savdosi shahar hayotida katta va muhim o'rin egallagan. U ichki va tashqi savdoga bo'lingan. Osiyo xonliklarida ichki savdo asosan qadimgi davrdan beri o'zaro ko'chmanchi chorvadorlar, o'troq dehqonlar va shahar-qishloq hunarmandlari mahsulotlariga asoslangan edi. Aholi o'zining ehtiyojlarini asosan o'z xonligidagi mahsulotlar bilan qondirishgan. Xonlik poytaxti bo'lmish Qo'qon markazlashgan savdo shahri hisoblangan. Masalan, 1830-yili Qo'qonda "devor bilan o'ralgan katta saroy sifatida bozor bo'lgan, bulardan ikkitasini mahalliy aholi qolgan to'rttasini esa chetdan kelgan savdo karvonlari egallardi. Haftada bozor uch kun ishlardi: yakshanba, chorshanba va payshanba kunlari. Bu kunlari Qo'qon va atrofidagi shahar va qishloqlardan ko'p miqdorda turli xil buyum va mahsulotlar keltirilgan. Ipak matolar bu yerda xonadonlarda to'qilardi, qog'oz fabrikasi va porox zavodidan tashqari boshqa fabrikalar yuq edi" - deydi Potashga. Mulla Niyoz Muhammad Xo'qandiy Norbo'tabiy hukmronligi davrida ichki va tashqi vaziyatning yaxshilanganligi savdoning rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatganligini ta'kidlagan.

Qo'qon shahri xonlikning yirik iqtisodiy markazi bo'lib, ichki savdoda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Mahalliy aholi Qo'qon bozorlariga hunarmandchilik va shahar atroflaridan dehqonchilik mahsulotlarini olib chiqqan. Shuningdek, xonlikning turli hududlarida tayyorlangan va yetishtirilgan mahsulotlarning sarasi Qo'qon bozorlarida sotilgan. Birinchi rus sharqshunos olimi V.V.Velyaminov-Zernov 1854-yilda yozgan "Qo'qon xonligi ruslar uchun savdo ahamiyati" nomli qo'lyozmasida ichki savdo haqida aytib eng katta bozorlar Toshkentda va Qo'qonda haftada 2 marta: yakshanba va chorshanba kunlari bo'lishini, ayniqsa bozorga ot va qo'ylar, qo'shni aholining esa g'alla, ip gazlamalar va turli xil xo'jalik ehtiyojiga zarur bo'lgan buyumlarni olib kelganini ta'kidlaydi. Muallifning so'ziga qaraganda ichki savdo chakana bo'lib ulgurji savdo deyarli bo'lmaydi. Toshkent va Qo'qon bozoriga eng ko'p g'alla (80 dan 100 aravagacha) iyul va avgust oylarida olib kelingan.

Qo'qon bozorlarida ipak gazlamalar hamda ip va ipak aralashgan matolar rang-barangligi bilan ajralib turgan. Poytaxtda tayyorlangan Qo'qon qog'ozi xonlik bozorlarining qadrlil mahsulotlaridan bo'lgan. XIX asrning 70-yillarida savdogarlar Qo'qon objuvozida 24 varaqdan iborat bir dasta qog'ozni 15 kop. dan olib, bozorlarda 20-30 kop. dan sotganlar. Xonlikdagi ichki savdoda ko'chmanchi va chorvador aholi tomonidan tayyorlangan gilam, sholcha, namatlar muhim o'rin tutgan. Xonlik shaharlarida bu mahsulotlarning o'z bozorlari mavjud bo'lgan. Masalan, Andijonda gilam, Namanganda esa qoraqalpoq va qirg'izlar tomonidan keltirilgan kigiz bozori mashhur bo'lgan. Ichki savdoda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari katta o'rin egallagan. Ichki bozorga qimmatbaho metallar, ma'danlar ham keltirilgan. Xususan, Namangan bozorlariga oltin Kosonsoydan keltirilgan. Olatov tog'laridan va Ketmontepa qo'rg'onidan, Andijon yaqinidagi La'lxon amavzesidan esa kumush va qo'rg'oshin qazib olinib, xonlik bozorlariga olib kelingan.

Qo'qon xonligidagi ichki va tashqi urushlar, qo'zg'olonlar, taxt uchun kurashlar bozorlardagi narx-navoga o'z ta'sirini o'tkazgan. Muhammad Aziz Marg'iloniy Sheralixon xonlik taxtiga o'tirganidan so'ng, savdogarlar "...bizning topgan molimizni, berkitib qo'yganlarimizni buxoro xoni olib ketdi, Qo'qon atrofini qal'a bilan o'raylik", - deb murojaat qilganligini, shuningdek, taxt uchun kurashlar avjiga chiqqan Xudoyorxonning ikkinchi hukmronligi (1862-1863) davrida "...katta qimmatchilik bo'ldi, bozorlardagi narxlar bir xil turmadi, bebarakatchilik bo'ldi", - deb yozgan edi.

Qo'qon xonligining Turkiston, Chimkent, Avliyoota, Toshkent, Xo'jand va boshqa shaharlari Rossiya tarkibiga kiritilgandan so'ng xonlik hududi asosan Farg'ona vodiysidan iborat bo'lib qolgan. Shunday bo'lsada xonlik bozorlari Turkiston general gubernatorligining shaharlari bozorlaridan mahsulotlar narxining arzonligi bilan ajralib turgan. Narx-navolar oshib ketishining sababi asosan shu bo'ldiki, rus qo'shinlari vodiya bostirib kirishi va janglar bo'lishi munosabati bilan aholi hayoti xavf ostida qolib uylaridan uzoqda joylashgan bozorga mahsulotlarini olib borish xatarli edi. Agarda savdogar bozorga tovar olib boradigan bo'lsa rus bosqinchilari va qo'zg'olonchilar tomonidan ham talon-taroj bo'lishi mumkin edi. Shuning uchun bozorga faqat juda muhtoj bo'lgan odamlar yoki chayqovchilar, bozorga yaqin yashaydiganlargina savdo-sotiq qilishga jur'at etardi, xolos. Shu sababli bozorlarda kundalik ehtiyojli tovarlarning narx-navolari ko'tarilib ketgan edi. O'rta Osiyo xonliklariga xos ravishda Qo'qon xonligi bozorlarida o'g'irlik holatlari juda kam ro'y bergan. Va shunday holat yuz bersa, jiddiy jazo qo'llanilgan. Xususan 1814-yil xonlikda bo'lgan F.Nazarovning yozishicha, qo'y o'g'irlagan kishining barmoqlari kesilgan va qaynab turgan chelakka tiqilgan, hamda eshakka teskari o'tkazilib, bozor aylantirilgan. Tarozidan urgan kishi esa yalang'och holda bozorda qamchilab yurilgan. Bu kabi keskin chora tadbirlar bozorlarda xaridor va sotuvchilarning erkin harakat qilishlariga imkoniyat yaratgan. Qo'qon xonlari XVIII asrning 70-yillariga qadar mamlakatning siyosiy mustaqilligini saqlab qolish va ichki urushlarning oldini olish bilan mashg'ul bo'lgan. Shu bois, ichki savdo munosabatlaridagi oldi-sotdi jarayoni qo'shni xonliklar pullari, asosan Buxoro tangalari va mol ayirboshlash orqali amalga oshirilgan. Norbo'tabiy Qo'qon taxtiga o'tirgach pul islohotini amalga oshirdi. Ma'lumotlarga ko'ra, Norbo'tabiy mis (fulus) chaqalar zarb ettirganva bu mis chaqalar xalq orasida "qora pul" deb atalgan.

Qo'qon xonligi tashqi savdo aloqalarida Buxoro va Xiva xonliklari alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Bu xonliklar o'zaro chegaradosh bo'lishi bilan birga, ularda yashayotgan xalqlar tili, dini, madaniyati va tarixining mushtarakligi o'zaro munosabatlarning muhim omili bo'lib xizmat qilgan. Buxoro va Xivadan tashqari, Qo'qon xonligi Rossiya, qozoq dashtlari, Qoshg'ar, Xitoy, Hindiston, Afg'oniston, Eron, arab mamlakatlari, Turkiya va boshqa davlatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirgan.

**Xulosa.** Qo'qon xonligida savdo-sotiq masalalari asosan hunarmandchilik ishlab chiqarishi orqali amalga oshirilgan. Savdo munosabatlari Qo'qon xonligida yashagan aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Xonlikda savdoning rivojlanishi aholi farovonligini oshirish bilan bir qatorda mahalliy mahsulot turlarining ko'payishiga va raqobatbardosh qilib ishlab chiqarilishiga olib kelgan. Shuningdek, iqtisodiy markazlar soni ko'payishiga, savdo infratuzilmasi – yangi bozor, karvonsaroy, karvon yo'llari qurilishiga, boj va pul tizimining isloh qilinishiga sabab bo'lgan. XVIII asr oxirlariga qadar Qo'qon xonligi bozorlarida asosan Buxoro xonligi tangalari muomalada bo'lgan bo'lsa, Norbo'tabiy davridan boshlab mamlakat o'z puliga – mis tangalariga ega bo'lgan. Norbo'tabiydan so'ng taxtga chiqqan Qo'qon hukmdorlari orasida eski pullarni yig'ishtirib olish va o'z nomidan yangi tanga pullar zarb ettirish an'anaga aylangan. Natijada Olimxon mis va kumush, Umarxon, Muhammad

Alixon va Xudoyorxon mis, kumush va oltin tangalar zarb ettirganlar. Xonlikning savdo aloqalari rivoji savdo infratuzilmasining taraqqiy etishiga olib kelgan. Ichki, tashqi va tranzit savdoning rivojlanishi natijasida savdo infratuzilmasining muhim komponentlari – bozor, karvonsaroy, bojxonalar va x.k. lar soni ortib borgan. O'z navbatida ulardagi tashkiliy ishlar tartibga solinib, nazorat ostiga olingan. Buning samarasi o'laroq, ularda amalga oshirilgan savdo natijasida mamlakatning iqtisodiy hayoti yaxshilanib borgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyhati.

1. Taraqqiyot yo'limizning shiddati oshaveradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasidan. // Xalq so'zi gazetasi. 2018 yil 28 dekabr.
2. Хорошхин А.П. Сборник касающихся Туркестанского края. – СПб.,1876. – С. 103
3. Записки хоружкаго Потанина 282-б
4. Mulla Niyoz Muhammad Xo'qandiy. Tarixi Shoxruxi. – Kazan, 1885. – С. 40-45
5. A.Navoiy nomli davlat kutubxonasi, PU – 3579
6. Федченко А. Оби джуазь-писчебумажная фабрика в Кокане... - С. 414
7. Вельяминов-Зернов В.В. Торговое значение Коканского ханства для русских... - С. 30.
8. Muhammad Aziz Marg'iloniy. Tarixi Aziziy/nashrga tayyorlovchilar Sh.Vohidov, D.Sangirova. – T: Ma'naviyat. 1999. – 71 bet
9. Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. – СПб. 1821. – С. 60.
10. Z.Madrahimov. Qo'qon xonligida savdo munosabatlari tarixi. T. "Yangi nashr" 2014. 20-23, 40-45 b.